

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA OG'ZAKI MATN TUZISHNI O'RGATISH METODIKASI.

Haydarova Mahliyo Amrillo qizi

Buxoro innovatsion ta'lim

va tibbiyot universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Rasmlar asosida fikrlash, nutq so'zlash, jamoada o'zini tuta bilish, o'zini erkin his qilish, topqirlik hamda zukkolik va ijodkorlik hislatlarini rivojlantirish. Ushbu tezis orqali bu jarayonning muvoffaqiyatli bo'lishi uchun Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida rasmlar asosida og'zaki matn ishlash metodlar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: Nutq so'zlash, jamoa, fikr, ijodkorlik, og'zaki matn, rol o'ynash, video.

Asosiy qism: Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining asosiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bosqichidir.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida og'zaki matn tuzishni bolaning tasavvur qilish qobiliyatini o'stiruvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi rasmlar ko'rgazmalar, didaktik vositalar ishlab chiqish va amalda qo'llash.

Og'zaki matn tuzish – bu bolaning mustaqil ravishda muayyan mavzu asosida mantiqli va mazmunli gaplardan iborat matn yaratishidir. Bu jarayon O'quvchining so'z boyligi, og'zaki nutqi, tushunish va ifoda qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlaganda og'zaki matn tuzish mashqlari quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi: matnning asosiy g'oyasini anglash, matnni reja asosida bayon qilish, bog'lovchi so'zlardan to'g'ri foydalanish, fikrni mantiqan rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish.

Dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar:

- Kuzatish asosida matn tuzish: Rasm yoki video asosida voqealarni kuzatib, bolalardan o'z so'zlari bilan bayon qilish so'raladi.

- Savol – javob usuli: Matn mazmuni roller asosida jonlantirilib, bolalar mavzuni yanada chuqurroq tushunadi.

- Tayanch so'zlar asosida matn tuzish: O'uvchilarga bir nechta kalit so'zlar beriladi, ular shu so'zlar asosida og'zaki matn tuzadilar.

- Rol o'ynash: Matn mazmuni rollar asosida jonlantirilib , bolalar mavzuni yanada chuqurroq tushunadi.

Metodik tavsiyalar

-O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish kerak.

-Matn tuzishga doir topshiriqlar asta- sekin murakkablashib borishi kerak.

-Har bir mashqdan keyin tahlil qilish zarur.

-O'qituvchi namuna ko'rsatib, so'ngra o'quvchidan mustaqil faoliyat kutishi kerak.

O'qituvchining roli.

O'qituvchi bolalarni erkin fikrlashga, to'g'ri talaffuz qilishga , matnni mantiqiy va mazmunli tuzishga o'rgatadi. Uning yordamida bolalar so'z boyligini oshirib boradi, o'z fikrini aniq va tushunarli ifoda qilishga o'rganadi. O'qituvchi tahlil jarayonida grammatik, uslubiy xatolarga e'tibor qaratadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga og'zaki matn tuzishni o'rgatish – ularning nutqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu borada to'g'ri metodika va didaktik materillardan foydalanish bolalarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga , ijodkorlikka va muloqotga tayyorlaydi. Og'zaki matn tuzish keyingi ta'lim bosqichlari uchun asos bo'ladi. To'g'ri tanlangan metodlar orqali o'quvchilarda mustahkam og'zaki ifoda qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qurbonova M. “Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi”, Toshkent, 2021.

2.Abduqodirova M. “Nutq o'stirish asoslari”, Toshkent 2020.

3.”Ona tili va o'qish savodxonligi” fanidan darsliklar.